

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

MAXAMMADIYEV MARAT MAMADIYOROVICH

**BADMINTONCHILARNI TAYYORLASHNING BOSHLANG'ICH
BOSQICHIDA KOORDINATSION QOBILİYATLARINI
RIVOJLANTIRISH**

**13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg'ulotlari, sog'lomlashtirish va adaptiv
jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of Dissertation abstract of Doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Махаммадиев Марат Мамадиёрович

Badmintonchilarni tayyorlashning boshlang‘ich bosqichida koordinatsion
qobiliyatlarini rivojlantirish3

Махаммадиев Марат Мамадиёрович

Развитие координационных способностей на начальном этапе подготовки
бадминтонистов.....29

Makhammadiyev Marat Mamadiyorovich

Development of coordination abilities at the initial stage of training badminton
players.....55

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works.....59

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

MAXAMMADIYEV MARAT MAMADIYOROVICH

**BADMINTONCHILARNI TAYYORLASHNING BOSHLANG‘ICH
BOSQICHIDA KOORDINATSION QOBILİYATLARINI
RIVOJLANTIRISH**

**13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv
jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2023.1.PhD/Ped4628 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan. Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifaning samdu.uz hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portali www.ziyonet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Kipchakov Baxodir Baxriddinovich**
pedagogika fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar: **Allamuratov Shuxratilla Inoyatovich**
biologiya fanlari doktori, professor

Jammatov Jasurbek Sharipovich
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot: **Namangan davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti huzuridagi DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "___" _____ soat ___ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy. Tel.:(0-370) 717-17-79, 717-27-27, faks: (0-370) 717-17-76, veb-sayt: www.jtsu.uz.e-mail: jtsu@uzdjsu.uz. O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti "A" bino, 1-qavat, 114-xona.

Dissertatsiya bilan Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy.Tel: (0-370) 717-17-79, 717-27-27, faks.: (0-370) 717-17-76.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "___" _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil "___" _____ da _____ raqamli reyestr bayonnomasi)

F.A.Kerimov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
p.f.d., professor

X.X.Qurbonov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
p.f.b.f.d. (PhD)

O.J.Dadabayev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi,
p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo miqyosida soʻnggi yillarda badminton sport turini rivojlantirish, uni olimpiya oʻyinlarida mavqeyini mustahkamlash borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Badmintonchilarni tayyorlashda koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish, sifatli va samarali mashgʻulotlarni tashkil qilish, zamon talabiga javob beradigan va xalqaro badminton musoboqalarida yuqori natijalarni qoʻlga kiritadigan badmintonchilarni tayyorlash dolzarb jarayon hisoblanadi. Badminton boʻyicha Osiyo va Olimpiya oʻyinlarida natijaga erishishdagi murakkabliklar badminton murabbiylari oldiga muhim vazifalar qoʻyadi. Badminton sport toʻgaraklarini tashkil etish va pedagogik shart-sharoitlarini rivojlantirib borish, yosh badmintonchilarning mashgʻulotlarini qiziqarli va samarali oʻtkazishga qaratilgan ayniqsa badminton sport turida eng muhim boʻlgan koordinatsion qobiliyatlarni takomillashtirish masalasi muhim vazifa hisoblanadi. Shu sababdan badmintonchilarni tayyorlash tizimida koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish asosida yuqori natijadorlikni kafolatlovchi mashgʻulot uslublarini amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon amaliyotida badmintonchilarni tayyorlashning texnik-taktik, jismoniy, fiziologik, psixologik asoslarini takomillashtirish va ularning koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish hamda tahlil qilish muammosi boʻyicha koʻplab olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Badminton sporti natijalarining jadal oʻsishi hamda ularni tayyorlash tizimida ilgʻor tajribalarning qoʻllanilishi mazkur yoʻnalishda zamon talablariga javob beradigan oʻquv-mashgʻulotlarining vosita va usullarini izlab topish talabini qoʻymoqda. Shuningdek boshlangʻich tayyorlov guruhida badminton sportiga qiziqishni oshirish ijtimoiy-maʼnaviy muhitni barqarorlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Badmintonchilar boshlangʻich tayyorgarlik bosqichida koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish, musobaqa faoliyati talablariga muvofiqlashtirish hamda individual va jamoa tarzida bellashuv jarayonida natijaga erishish imkoniyatini oshirish muammosini tadqiq etish zarurati mavjud.

Respublikamizda jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish, yosh avlodni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb qilish hamda malakali sportchilar tayyorlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. “Ilgʻor xalqaro tajribani hisobga olgan holda sportchilar tayyorlash metodologiyasini takomillashtirish, sport turlari boʻyicha terma jamoalar tarkibini sifatli toʻldirish uchun sport zaxirasini shakllantirish va yuqori malakali sportchilarni tayyorlash jarayoniga innovatsion loyihalarni joriy etish hamda oliy sport yutuqlarini rivojlantirish tizimini takomillashtirish”¹ kabi vazifalarni amalga oshirish belgilangan. Badmintonchilar koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish boshlangʻich tayyorgarlik bosqichida ixtisoslikka xos turlarini rivojlantirish jarayonida innovatsion platforma, mobil ilovalar, shuningdek

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-noyabrdagi PQ-4877-son “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori. www.lex.uz.

jismoniy sifatlarni o‘zaro bog‘liq holda rivojlantirish kabi samarador metodikalarni taqazo etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-noyabrdagi PQ-4877-son “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-fevraldagi 118-son “2019-2023-yillar davomida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-martdagi 143-sonli “O‘zbekiston Respublikasida badminton sport turini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi PQ-5282-sonli “2021-2022-yillarda yurish, yugurish, mini-futbol, badminton, stritbol va “Workout” sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari mazkur sohaga doir boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” bilan bog‘liq ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xorijiy olimlardan D.D.Blume², Bety Uber³, P.Hirtz⁴, John Edwards⁵ tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda badminton sport turining tarixi, shakllanishi va ushbu sport turi bilan shug‘ullanuvchilarning jismoniy sifatlari o‘rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan V.Y.Lifshits⁶, A.V.Galitskiy⁷, Y.N.Smirnov⁸, O.V.Kudimova⁹ va boshqalar tomonidan badmintonning sport turi sifatida o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganilgan bo‘lsa, badminton nazariyalari va usullari O.V.Jbankov¹⁰, D.P.Ribakov¹¹, jamoaviy sport

² Blume, D.-D. Einige aktuelle Probleme des Diagnostizierens Koordinativer motorischer Test / D.-D Blume // Theorie und Praxis des Sportkultur. -1984. -№ 2. -P. 122-124.

³ Betty Uber. A Brief History of Badminton from 1870 to 1949. Published by Read Books, 2011. p.12.

⁴ Hirtz, P. Enturecklung Koordinativer Tatigkeitenja, aber wie? / P. Hirtz, G. Ludwig, I. Wellnitz // Korpersiehung. - 1982. - № 8-9. - P. 386-391.

⁵ John Edwards - Badminton. Technique, tactics, training. TheCrowoodPressLtd 2014. - 96p.

⁶ Лифшиц В.Я. Бадминтон для всех / Лифшиц В.Я., Шгильман М.И. - М.: Физкультура и спорт, 1986. - 152 с.

⁷ Галицкий А. В. Доступный, как бег трусцой: игра в бадминтон / Галицкий А.В., Лифшиц В.Я. - М.: Знание, 1987. - 96 с.

⁸ Смирнов Ю.П. Бадминтон: учебник для институтов физической культуры / Смирнов Ю.П. - М.: Физкультура и спорт, 1990. - 172 с.

⁹ Кудимова О.В. Методика оценки качества подачи и нападающих ударов в бадминтоне / Кудимова О.В. // Спортивные игры в физическом воспитании и спорте: материалы междунар. науч.-практ. конф. (Смоленск, 24-26 дек. 2002 г.). -Смоленск, 2002. - С. 318-362.

¹⁰ Жбанков О.В. Информационная система оперативной оценки эффективности технических действий в бадминтоне / Жбанков О.В., Куприянов Д.Н., Ильин Ю.М. // Теория и практика физической культуры. - 2001. - №9.-С. 62-63.

¹¹ Рыбаков, Д. П. Основы спортивного бадминтона / Д. П. Рыбаков, М. И. Шгильман. - М.: Физкультура и спорт, 1982. - 144 с.

turlari bo'yicha musobaqa faoliyatining muvaffaqiyati ko'p jihatdan sportchilarning koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish darajasi bilan belgilanishi F.G.Valeyev¹², I.B.Markoe¹³, G.V.Valeyeva¹⁴lar, koordinatsion qobiliyatlarning rivojlanish darajasini o'lchash va baholash masalalari A.G.Karpeyev¹⁵, V.V.Volinko¹⁶, Y.I.Gorskaya¹⁷, V.I.Lyax¹⁸ tomonidan o'rganilgan.

Mamlakatimizda badminton sport turi tobora rivojlanib bormoqda. O'z navbatida, iqtidorli bolalarni saralab olish, ularni sportga yo'naltirish va ko'p yillik tayyorgarlikda ularni muntazam saralab borish texnologiyalarini ishlab chiqish sport nazariyasi va uslubiyati sohasidagi muhim muammolardan hisoblanadi. Shu munosabat bilan boshlang'ich bosqichlarda badmintonchilarni tayyorlash, birlamchi saralash va koordinatsion qobiliyatini rivojlantirish masalalariga doir ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. O'zbek sportida ham ommaviy sportni sog'lomlashtirish tizimini takomillashtirish va jismoniy tarbiya ta'limi samaradorligini oshirish, badminton sport turini rivojlantirish masalalari A.Pulatov, O.Savatyugin, Sh.Isroilov¹⁹ kabilar tomonidan o'rganilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq № V.III/57. "Jismoniy tarbiya va sport sohasida boshqarishning me'yoriy-huquqiy tadqiqotlarini rivojlantirish, jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlashni takomillashtirish" mavzusi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi badmintonchilarni boshlang'ich tayyorlov bosqichida koordinatsion qobiliyatlarni aniqlash va rivojlantirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

¹² Валеев Ф.Г. Быстрая игра бадминтониста // Бадминтон. - 1979. - № 15. - С. 3-5. Валеев Ф.Г. Быстрая игра и лабильность нервной системы // Бадминтон. - 1979. - № 10. - С. 17-26. Валеев Ф.Г. Быстрая игра и лабильность нервной системы бадминтонистов // Проблемы работоспособности и восстановления в спорте: тезисы докладов II науч.-практ. конференции. - Казань, 1980. - С. 69-71. Валеев Ф.Г. Индивидуализация подготовки бадминтонистов с учетом силы нервной системы // Бадминтон. -1977.-№ 17.-С. 49-69.

¹³ Маркое И.Б. Психофизические особенности занимающихся и оптимизация структуры тренировочного процесса в спортивных играх // Оптимизация тренировочного процесса квалифицированных спортсменов: сб. науч. ст. - Алма-Ата, 1991. - С. 20-27.

¹⁴ Валеева Г.В. Бадминтон: учебное пособие / Валеева Г.В.; Уфим. гос. нефтяной техн. ун-т. - Уфа, 2002. - 86 с.

¹⁵ Карпеев А.Г. О многолетней стратегии спортивно-технической подготовки с учетом возрастных закономерностей развития двигательной координации / Карпеев А.Г. // Ученые записки университета им. П.Ф. Лесгафта. - 2008. - № 4(38). - С. 35-39.

¹⁶ Волынка В.В. Некоторые аспекты в изучении координационных способностей спортсменов / Волынка В.В. // Вестник спортивной Белоруссии. - 1994.-№ 1. - С. 25-27.

¹⁷ Горская И.Ю. Теоретические и методологические основы совершенствования базовых координационных способностей школьников с различным состоянием здоровья: дис... д-ра пед. наук. / Горская И.Ю. - Омск, 2001.-455 с.

¹⁸ Лях В.И. О концепциях, задачах, месте и основных положениях координационной подготовки в спорте / Лях В.И., Садовский Е. // Теория и практика физической культуры. - 1999. - № 5. - С. 40-46.

¹⁹ Pulatov A.A., Savatyugin O.M., Isroilov Sh.Sh. Badminton nazariyasi va uslubiyati. (Q'quv qo'llanma). -T.: «Fan va texnologiya», 2017, 300 bet.

boshlang'ich tayyorlov bosqichidagi badmintonchilarning muvofiqlik, aniqlik, tezkorlik, muvozanatni saqlash kabi koordinatsion qobiliyatlari va badminton o'yinida zarur bo'lgan asosiy harakat ko'nikmalarini rivojlantirish;

reaksiya tezligi va o'yin vaziyatlarida to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatlarini mustahkamlash;

badmintonchilarda koordinatsion qobiliyatlarini namoyon bo'lish shakllari, bosqichlari va tayyorgarlik tamoyillarini inobatga olib innovatsion palatforma yaratish;

yosh badmintonchilarning dastlabki tayyorgarlik bosqichida koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantiruvchi, mashg'ulotlarni nazariy va amaliy o'zlashtirish imkonini beruvchi mobil ilova ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston Badminton federatsiyasi, O'zbekiston Badminton federatsiyasi Samarqand viloyati bo'limi hamda Samarqand, Buxoro va Jizzax viloyatlaridagi sportning o'yin turlari va yengil atletika bo'yicha ixtisoslashtirilgan sport maktablari badmintonchilarning o'quv-mashg'ulot va musobaqa jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmetini badmintonchilarni tayyorlashning boshlang'ich bosqichida koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish vositasi, shakl va usullari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatish, so'rovnoma o'tkazish, pedagogik-tajriba, matematik-statistika usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

badmintonchilarni tayyorlashning umumiy xususiyatlari va zaruratini aniqlash hamda badmintonchilarni tayyorlashning boshlang'ich bosqichida koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish hisobiga yosh badmintonchilarning murakkab texnik harakatlarni to'g'ri bajarish imkoniyati kengaytirilgan;

badmintonda musobaqa faoliyati samaradorligini oshirish uchun muhim bo'lgan umumiy va maxsus koordinatsion qobiliyatlarini jismoniy sifatlarning rivojlanish bilan bog'liqligini aniqlash orqali mashg'ulotlarda shug'ullanuvchilarning ritmik, kinestetik va reaktiv muvozanatni saqlash qobiliyatlarini rivojlantirish hisobiga maxsus mashqlar tizimi takomillashtirilgan;

10-11 yoshli badmintonchilarning umumiy va xususiy koordinatsion qobiliyatlarini namoyon bo'lish shakllari, bosqichlari va tayyorgarlik tamoyillarini inobatga olib barcha uchun birdek mos keluvchi innovatsion platformani yaratish hisobiga badminton sport turi bilan shug'ullanuvchilarning o'z-o'zini nazorat qilish imkoniyati kengaytirilgan;

boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida badmintonchilarning koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan individual, guruhli va jamoaviy texnik-taktik harakatlarni o'rgatuvchi "Badminton" nomli mobil ilova ishlab chiqish hisobiga shug'ullanuvchilarning mashg'ulotlarni mustaqil o'zlashtirish hamda koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish imkoniyati oshirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

badmintonchilarni tayyorlashning boshlang'ich bosqichida koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish metodikasini ishlab chiqqan;

umumiy va maxsus koordinatsion qobiliyatlarini jismoniy sifatlarning rivojlanish bilan bog'liqligini o'rganish badminton mashg'ulotlarida koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantiruvchi maxsus mashqlar tizimini takomillashtirgan;

badmintonchilarda koordinatsion qobiliyatlarini namoyon bo'lish shakllari, bosqichlari va tayyorgarlik tamoyillarini inobatga olib barcha uchun birdek mos keluvchi innovatsion platforma yaratilgan;

koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantiruvchi, mashg'ulotlarni nazariy va amaliy o'zlashtirish imkonini beruvchi mobil ilova ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiyada foydalanilgan nazariy ma'lumotlarning ishonchliligi, ilmiy adabiyotlar bilan vaqtli matbuot manbalaridan olinganligi, ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatish, so'rovnoma o'tkazish, bellashuv faoliyatini tahlil qilish, mashg'ulot va musobaqa yuklamalarini baholash, pedagogik-tajriba, ekspert baholash, matematik-statistika metodlari bilan asoslanganligi, nazariy fikr va takliflarining amaliyotga keng turda qo'llanilishi, aytilgan fikrlarning tegishli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati yosh badmintonchilarga turli xil jismoniy tayyorgarligi, individual imkoniyatlarini inobatga olgan holda yuqori natijalarga erishish va sog'lomlashtirishga yo'naltirilgan badminton sport turini qo'llash, mamlakatimiz olimpiya va paralimpiya sport turlariga ixtisoslashgan sport maktablari hamda jismoniy tarbiya, sport nazariyasi va uslubiyati fani mazmunini boyitishi hamda kengaytirishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, aholini kichik yosh qatlamlariga badminton sport turi mashg'ulotlarni tashkil qilishda, o'quv qo'llanmalar va innovatsion metodlardan foydalangan holda turli xil jismoniy va funksional imkoniyatlarga ega bo'lgan shug'ullanuvchilarning salomatligini mustahkamlash, har tomonlama jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish hamda rivojlantirish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Badmintonchilarni tayyorlashning boshlang'ich bosqichida koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

badmintonchilarni tayyorlashning umumiy xususiyatlari va zaruratini aniqlash hamda badmintonchilarning tayyorlashning boshlang'ich bosqichida koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish bo'yicha taklif va tavsiyalar Samarqand, Buxoro va Jizzax viloyatlaridagi sportning o'yin turlari va engil atletikaga ixtisoslashtirilgan sport maktablari mashg'ulotlariga tatbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligi 2024-yil 1-fevral 08-01/04/20/1093-son ma'lumotnomasi). Natijada, yosh badmintonchilarning hujum ko'rsatkichi 10,7%ga,

javob qaytarish qobiliyati (hujum samaradorligi) 15,3%ga, qarshi hujum ko'rsatish qobiliyati 12,5%ga himoya ko'rsatkichi 10,9%ga o'sishiga erishilgan;

badmintonda musobaqa faoliyati samaradorligini oshirish uchun muhim bo'lgan umumiy va maxsus koordinatsion qobiliyatlarini jismoniy sifatlarning rivojlanish bilan bog'liqligini aniqlash orqali badminton mashg'ulotlarida koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantiruvchi maxsus mashqlar tizimini takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar "Badminton" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Samarqand davlat universiteti kengashining 2024-yil 30-yanvardagi 7-son qarori nashr guvohnomasi №308). Natijada shug'ullanuvchilarning ritmik, kinestetik va reaktiv muvozanatni saqlash qobiliyatlari 12,7% ga yaxshilangan;

10-11 yoshli badmintonchilarning umumiy va xususiy koordinatsion qobiliyatlari rivojlantirish koordinatsion qobiliyatlarini namoyon bo'lish shakllari, bosqichlari va tayyorgarlik tamoyillarini inobatga olib barcha uchun birdek mos keluvchi innovatsion platforma yaratish bo'yicha taklif va tavsiyalar O'zbekiston Badminton federatsiya, O'zbekiston Badminton federatsiyasi Samarqand viloyati bo'limi hamda Samarqand, Buxoro va Jizzax viloyatlaridagi sportning o'yin turlari va engil atletika bo'yicha ixtisoslashtirilgan sport maktablari mashg'ulotlar jarayoniga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligi 2024-yil 1-fevral 08-01/04/20/1093-son ma'lumotnomasi). Natijada badminton bilan shug'ullanuvchilarining umumiy jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari 12,6% ga, maxsus jismoniy tayyorgarligi 13,4% oshishiga erishilgan;

boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida badmintonchilarning koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan individual, guruhli va jamoaviy texnik-taktik harakatlarni o'rgatuvchi "Badminton" nomli mobil ilova ishlab chiqilgan (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligi 2024-yil 1-fevral 08-01/04/20/1093-son ma'lumotnomasi). Natijada shug'ullanuvchilarning badminton sport turi texnik elementlarini to'g'ri bajarish imkoniyati 14,2% ga yaxshilanishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarning aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari bo'yicha 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruzalar qilingan.

Tadqiqot natijalarning e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy-uslubiy ish, shu jumladan, 1 ta o'quv qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, (xalqaro 3 ta, Respublikada 2 ta) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, 138 sahifa matn, 17 ta rasm, 15 ta jadval, xulosalar, amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, dissertatsiyaning mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi va muammoning o'rganganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari,

obyekti va predmeti belgilangan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarini ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarini joriy qilinishi, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi asoslangan, ishning tuzilishi yuzasidan ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Badmintonchilarni tayyorlashning ilmiy metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida, badmintonchilarni tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari va zarurati, badmintonning sport turi sifatida genezisi va shakllanishi tarixi, badmintonchilarni tayyorlashga doir tajribalar, ilmiy tadqiqotlar tahlili va zamonaviy yondashuvlari, to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan.

F.G.Valeyev sport turi badminton o‘ynash orqali bolalarda asab tizimini hisobga olgan holda tezkorlik, epchillik xususiyatlarini rivojlantirish xususida fikr yuritib, muayyan harakatlar (shaxsiy o‘yin usuli – zarbasi, to‘p uzatishi, to‘p kiritishi, to‘pni qabul qilishi kabilar) texnikasi maxsus mashqlar yordamida qanchalik ko‘p va uzoq takomillashtirilsa, u shunchalik go‘zal, chiroyli, yengil, bioenergetik jihatdan tejimli, samarali va aniq, “san‘at darajasida” bajarilishi mumkinligini ta‘kidlaydi.

V.I.Karpenko tadqiqotida badmintonchilarning raqobatbardoshlik samaradorligini oshirish uchun muhim bo‘lgan koordinatsion qobiliyatlari turlarini aniqlagan. Umumiy va xususiy koordinatsion qobiliyatlarining o‘zaro va jismoniy sifatlarning rivojlanish darajasi bilan bog‘liqligi, metodikasi tahlil qilingan. Uning ta‘kidlashicha, 10-11 yoshli badmintonchilarning umumiy va xususiy koordinatsion qobiliyatlari rivojlanish darajasining yoshga bog‘liq xususiyatlari jismoniy sifatlardan chambarchas bog‘liq ekanligini olib borgan ilmiy tadqiqotlarida isbotlagan.

V.S.Balsevich esa vosita funksiyasini rivojlantirish jarayonida mashg‘ulotlarning muvaffaqiyati, bolaning motorik ko‘nikmalarini yosh xususiyatiga ko‘ra ritmik rivojlantirishning biologik jihatdan rivojlanishini aniqlagan. Koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish uchun eng qulay davr 10-11 yoshdir, shuning uchun yosh badmintonchilarning qobiliyatini rivojlantirish muammolarini hal qilishga pedagogik amaliyotda yetarlicha e‘tibor berilmaydi deb ta‘kidlab o‘tgan.

M.A.Ignatyev tomonidan badminton eshitish bilan nuqsoni mavjud bolalarni eshitishini yaxshilash vositalaridan biri ekanligini ta‘kidlab yozadi: “Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun maxsus (kooreksion) maktablarida badmintondan ko‘proq foydalanilgan holda jismoniy tarbiya darslarini tashkil qilishda har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini (morfofunktsional rivojlanish holati, funksiyalari va koordinatsion qobiliyatlari, jismoniy tayyorgarlik darajasi) hisobga olgan holda pedagogik talablarga rioya qilish zarur.

V.A.Lepishkin va boshqa mualliflar hamkorligida yozilgan maqolada, badmintonda ustun bo‘lgan mahoratlardan biri bu o‘yin davomida 1/5 hujumlardan iborat bo‘lgan tepadan forxend zarbasi ekanligi ta‘kidlangan. Mualliflar yozadi: Empirik ma‘lumotlar shuni ko‘rsatadiki, kuchli va to‘g‘ri zarba berish uchun tananing uchib kelayotgan volanga nisbatan holatini moslashtirish kerak. Shunday qilib, fazoviy joylashuv fundamental aspekt bo‘lib, joylashuvni to‘g‘ri aniqlash

muvaffaqiyat sifatiga ta'sir qiladi. Afsuski, adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, bu fundamental jihat xususida tadqiqotlar olib borilmagan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot usullari va uning tashkil qilinishi”** deb nomlangan ikkinchi bobida ilmiy-uslubiy adabiyotlarning tahlili, anketa so'rovnomasi, pedagogik testlash, pedagogik tajriba, matematik statistika uslubi, tadqiqotning tashkil qilinishida ularni qo'llash uslubiyoti va shartlari batafsil yoritilgan. Dissertatsiya ishini bajarish va tashkil qilish uchun foydalanilgan ilmiy tadqiqot metodlari yoritilgan. Dissertatsiyaning tadqiqoti quyidagi bosqichlarda o'tkazildi.

I bosqich (2017-2018) - tadqiqot muammosining nazariy-metodologik asoslari o'rganildi, tadqiqotning ishchi gipotezasi shakllantirildi, tadqiqotning maqsad va vazifalari hamda uni amalga oshirish usullari belgilab olindi. Shuningdek, tadqiqot mavzusiga doir ilmiy-uslubiy adabiyotlar o'rganildi va tadqiqot yo'nalishi belgilandi. Ushbu muammoni hal qilish bo'yicha real amaliyot o'rganildi.

II bosqich (2018-2019) - tajriba obyektlarining zarur sonini tanlash (yosh badmintonchilar soni), tajribani o'tkazishda talab qilinadigan davomiylikni aniqlash, tajriba obyektining dastlabki holatini o'rganish uchun aniq metodikani tanlandi. Tadqiqot mavzusiga doir birlamchi ma'lumotlar umumlashtirildi. Yosh badmintonchilar musobaqa va mashg'ulot jarayoni pedagogik kuzatildi. Mashg'ulot va musobaqa faoliyatini baholash bo'yicha obyektiv axborot beruvchi maxsus testlar tanlandi va badmintonchilar mashg'ulot va musobaqa faoliyati ko'rsatkichlari qiyosiy tahlil qilindi. Yosh badmintonchilar bellashuv faoliyati ko'rsatkichlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari, xususan, badmintonchilar bellashuv faoliyatining texnik-taktik ko'rsatkichlari, bellashuv faoliyatining vaqt xususiyatlari musobaqa davralari, musobaqa darajalari tadqiq etildi.

III bosqich (2020-2021) - tajriba o'tkaziladigan tizimning dastlabki holatini o'rganish (yosh badmintonchilarning jismoniy va tezkor-kuch tayyorgarligi darajasi aniqlandi), badmintonchilar musobaqalashish imkoniyatini oshirish maqsadida musobaqa oldi tayyorgarlik bosqichida qo'llash uchun ixtisoslashgan mashqlar mazmuni (takrorlanishlar, mashq va tiklanishlarning o'zaro nisbati) bellashuv qismlari hamda musobaqaning turli davralar kesimidagi davomiyligiga muvofiqlashtirildi hamda mashg'ulot dasturi ishlab chiqildi. Tajribaga oid tadbirlar tizimi ta'sirida obyektlardagi o'zgarishlarni tavsiflovchi oraliq ma'lumotlar kesimi asosida tajribaning borishi to'g'risidagi ma'lumotlarni qayd etib borildi, tajribani o'tkazish davomidagi qiyinchiliklar va uchrashi mumkin bo'lgan kamchiliklarni ko'rsatish, joriy vaqt, vosita va sa'y-harakatlar sarfi baholab borildi.

IV bosqich (2022-2023) - bu tajriba natijalarini umumlashtirishga qaratilgan yakuniy bosqich: tajribaga doir chora-tadbirlar tizimi natijalarining tavsifi (yosh badmintonchilar tayyorgarlik darajasining yakuniy holati, bilim, ko'nikma va jismoniy qobiliyatlarni o'zlashtirish darajasi), tajriba ijobiy natija bergan sharoitlar tavsifi, tajribada ta'sir subyektlarining (murabbiylar, sportchilar) o'ziga xos ta'sirini tavsifi, sarflangan vaqt, kuch va vositalar to'g'risidagi ma'lumotlar aniqlandi. Ishlab chiqilgan mashg'ulot dasturi nazorat va tajriba guruhlariga ajratilgan

badmintonchilar mashg'ulotlarida 8 haftalik dastlabki sinovdan o'tkazildi hamda olingan natijalar qiyosiy tahlil qilindi. Tajriba natijalarining samaradorlik ko'rsatkichlari matematik-statistik usullar bilan asoslab berildi, tadqiqot ishi bo'yicha xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Tayyorgarlik bosqichida tajriba va nazorat guruhlariga kiritilgan 10-11 yoshdagi badmintonchilarning o'yin harakatlarini egallashga bo'lgan kelajakdagi istiqbolini baholash yuzasidan ishlab chiqilgan uslubiyatdan foydalangan holda pedagogik tajriba o'tkazildi.

Dissertatsiyaning **“Badmintonchilar tayyorlashni boshlang'ich bosqichida koordinatsion qobiliyatlarni takomillashtirish uslubiyati”** deb nomlangan uchinchi bobida badmintonchilarda koordinatsion qobiliyatlarini namoyon bo'lish shakllari, bosqichlari va tayyorgarlik tamoyillari, badmintonchilarni tayyorlashning boshlang'ich bosqichida koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari, yosh badmintonchilarning koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishda axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish metodikasi haqida batafsil ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha muammolarni o'rganish va uni bartaraf etish maqsadida sport maktabi murabbiylari bilan yosh badmintonchilar jismoniy tayyorgarligining holatini o'rganish bo'yicha so'rovnoma o'tkazildi. Badmintonchilarni tayyorlashning boshlang'ich bosqichi ya'ni tayyorlov guruhidagilarning o'ziga xos koordinatsion qobiliyatlari aniqlandi va tahlil qilindi.

Bundan tashqari badminton sport turi bilan shug'ullanuvchi sportchilarning koordinatsion qobiliyatlarini aniqlash va uni rivojlantirish uchun badminton murabbiylari o'rtasida ham so'rovnomalar o'tkazildi. Koordinatsion qobiliyatni rivojlantirishning umumiy maqsadlari va dolzarbligi quyidagicha:

Koordinatsion qobiliyat (KQ) harakatlarni aniqlik va moslik bilan bajarish uchun sportchining jismoniy va psixologik salohiyatini ifoda etadi. Koordinatsion qobiliyat harakatlar vaqtida sportchi organizmida paydo bo'ladigan murakkab neyro-fiziologik jarayonlarning natijasidir. Badminton o'yini sport turlarining koordinatsiyaga yuqori talab qo'yadigan turlaridan biri bo'lib, sportchining muvaffaqiyatini belgilashda koordinatsion qobiliyat hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Badmintonchilar uchun koordinatsion qobiliyat rivojlanishining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

1. Volanni nazorat qilishda aniqlik va tezkorlikni ta'minlash.
2. Maydon bo'ylab harakatlanishning muvofiqligini oshirish.
3. Zarba texnikasi va taktikasini o'zlashtirishni tezlashtirish.
4. O'yin sharoitlariga moslashuvchanlikni rivojlantirish.


Bugungi kunda xalqaro musobaqalarda muvaffaqiyat qozonish uchun yosh sportchilarda koordinatsion qobiliyatni boshlang'ich bosqichdanoq rivojlantirish dolzarb masalaga aylangan. Chunki zamonaviy badminton texnikasi va taktikasini egallashning boshlang'ich bosqichi aynan koordinatsion qobiliyat rivoji bilan bevosita bog'liq. Masalan, volanning tez harakatlanishi, o'yin maydonining nisbiy kichikligi va sportchining harakatlanish tezligi badmintonchilarni har bir qarorni tezda qabul qilishga majbur qiladi. Shuningdek, koordinatsion qobiliyat rivojlanishi

sportchilarning texnik elementlarni takomillashtirish jarayonida jarohat olish xavfini kamaytiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich bosqichda koordinatsion qobiliyatlarini rivojiga qaratilgan mashqlarni tizimli qo'llash yosh badmintonchilarning o'yin natijalarini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Badmintonchilarning koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishning asosiy maqsadi: Badminton o'yinchilari tayyorlanishining boshlang'ich bosqichida ularning koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish orqali texnik, taktik va jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish. Ushbu metodikaning vazifasi esa Sportchilarning asosiy koordinatsion qobiliyatlarini (muvofiqlik, aniqlik, tezkorlik, muvozanat) rivojlantirish, badminton o'yinida zarur bo'lgan asosiy harakat ko'nikmalarini shakllantirish hamda reaksiya tezligi va o'yin vaziyatlarida to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatlarini mustahkamlashdam iborat.

Badmintonchilarning koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish asosan 2 ta bosqichdan iborat bo'ladi: 1-mashg'ulot tamoyillari, 2-mashg'ulot bosqichlari. Ushbu bosqichlarni belgilangan tartibda bajarish koordinatsion qobiliyatlarni rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi bu esa badminton sport turida yuqori natijalarga erishish uchun xizmat qiladi. Badminton o'yinida taktik qarorlarni tezkor qabul qilish va joylashuvni moslashtirish taktika bilan bog'liq koordinatsiya sifatida ko'riladi. Yosh sportchilarda bu qobiliyatni rivojlantirish musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etishning kalitidir.

Yosh badmintonchilarni tayyorlashning boshlang'ich bosqichida koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Badmintonchilarni tayyorlashning boshlang'ich bosqichida koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish uslubiyati

Yuqorida keltirilgan rasmdan ham ko‘rishimiz mumkinki, badmintonchilarning koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishning asosiy maqsadi: Badminton o‘yinchilari tayyorlanishining boshlang‘ich bosqichida ularning koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish orqali texnik, taktik va jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish. Ushbu metodikaning vazifasi esa sportchilarning asosiy koordinatsion qobiliyatlarini (muvofiqlik, aniqlik, tezkorlik, muvozanat) rivojlantirish, badminton o‘yinida zarur bo‘lgan harakat ko‘nikmalarini shakllantirish hamda reaksiya tezligi va o‘yin vaziyatlarida to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyatlarini mustahkamlashdan iborat.

Bugungi kunda ko‘plab davlatlarda badminton sporti bo‘yicha yuqori natijaga erishish uchun maxsus dasturlar va trening metodikasi ishlab chiqilmoqda. Ammo boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida yosh sportchilarning koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-uslubiy yondashuv yetarli darajada rivojlanmagan. Bu mavzu yosh sportchilarni texnik va psixologik jihatdan rivojlantirishni ta‘minlash uchun dolzarbdir. Koordinatsion qobiliyat - bu insonning murakkab harakatlarni aniqlik, muvozanat va vaqtga mos ravishda bajarish qobiliyatidir. U nerv-muskul tizimining birgalikdagi faoliyatiga asoslanadi va sport mashg‘ulotlarida harakatlarni aniqlik bilan bajarishni ta‘minlaydi.

Badminton sport turida koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. 1. Badmintonchilar uchun volanning harakatini kuzatib, unga tezkor moslashish muhimdir. 2. Harakat tezligi va yo‘nalishini o‘zgartirishda koordinatsiya talab qilinadi. 3. Texnika va taktika samaradorligini oshirish uchun sportchining jismoniy va psixologik muvofiqligi zarur.

Koordinatsiyaning asosiy turlari quyidagilardan iborat: Badmintonchilarda koordinatsion qobiliyatni rivojlantirish uchun quyidagi turlarga e‘tibor qaratish lozim: Kengaytirilgan muvozanat: Harakat davomida barqarorlikni saqlash. Reaksiya tezligi: Volanga javob berish qobiliyati. Proprioseptiv sezgirlik: Tana holatini va mushaklarning vazifasini boshqarish. Harakat aniqligi: Volan zarbasi va maydon bo‘ylab pozitsiyani aniqlash.

Koordinatsion mashqlarning umumiy tavsifi va maqsadi: Mashqlarni tuzish va amalga oshirish jarayonida asosiy e‘tibor sportchining harakatlarini muvofiqlashtirish, tezkor qaror qabul qilish, harakat yo‘nalishini tez o‘zgartirish va ayni vaqtda volan ustidan nazoratni saqlashga qaratiladi.

Badminton bo‘yicha boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida ushbu mashqlarni tizimli ravishda qo‘llash orqali sportchining texnik va taktika jihatdan rivojlanishiga yordam beriladi. Bunda mashqlarni ketma-ketlikda qo‘llash va ularning murakkabligini bosqichma-bosqich oshirish tavsiya etiladi.

Biz tadqiqotimiz davomida yosh badmintonchilarning koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish uchun maxsus mashqlar majmuasini tartiblashtirib chiqdik. Mazkur jadvalda aynan badminton sport turiga xos bo‘lgan mashqlarni koordinatsion qobiliyatlarga ta‘siri bo‘yicha tasniflab, ushbu mashqlar klassifikatsiyasini ishlab chiqdik (1-jadvalga qarang).

1-jadval

**Badminton mashg'ulotlarida koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantiruvchi
maxsus mashqlar tizimi**


T/r	Mashq nomi	Mashqning umumiy tavsifi	Takrorlash soni	Bajarilish vaqti (son.)	Dam olish vaqti (son.)	Uslubiy ko'rsatma
1	Raketka bilan volanni boshqarish	Volanni raketka yordamida havoda ushlab turish va har xil yo'nalishlarda boshqarish.	4-5 marta	60	30	Volanni barqaror boshqarishga harakat qiling. Tezlikni sekin oshiring.
2	Yon tomonga volanni urish	Yon tomonga harakatlanib volanni nazorat bilan urish va qaytarish.	6-8 marta	30	20	Volanni aniq urib, tezlikni oshirishga harakat qiling. Pozitsiyani tiklang.
3	Devorga volanni urib qaytarish	Volanni devorga urib, qaytganida uni raketka yordamida boshqarish.	6-8 marta	40	20	Zarbalarning barqarorligini ta'minlang. Volanni bir nuqtaga yo'naltirishga harakat qiling.
4	Zig-zag usulida volan bilan yugurish	Volanni raketka yordamida boshqarib, zig-zag usulida harakatlanish.	4-5 aylana	30	30	Volanni nazorat qiling va yo'nalish o'zgarishlarini ravon bajaring.
5	Bir oyoqda volan bilan turish	Bir oyoqda turib volanni raketka yordamida boshqarish.	3-4 marta	30	20	Tana muvozanatini ushlab turib, volanni barqaror boshqaring.
6	Signal bo'yicha pozitsiyani o'zgartirish	Murabbiyning signali bo'yicha oldinga, orqaga yoki yon tomonga harakat qilish.	8-10 marta	15	15	Signalga tez javob berib va harakatlarni texnik jihatdan to'g'ri bajaring.
7	To'siqlar orasida volan bilan yurish	To'siqlar orasida volanni nazorat qilib yurish yoki yengil yugurish.	5-6 marta	40	30	Volanni boshqarishda muvozanatni saqlang va to'siqlarni e'tiborga oling.
8	Ikki o'yinchi o'rtasida volan uzatish	Volanni sherik bilan uzatish va qaytarish.	10 almashinish	20	20	Volanni doimiy nazoratda ushlang va uzatishni aniq bajaring.
9	Qarshi yo'nalishda volan bilan harakat	Volanni nazorat qilib, qarshi yo'nalishda tez harakatlanish va pozitsiyani tiklash.	4-5 marta	30	20	Volanni yo'qotmaslikka harakat qiling va harakat tezligini moslang.
10	Oyoqlarni tezkor ishlatish (tezlik bosqichlari)	Volanni boshqarib, belgilangan masofalarda oyoqlarni tez ishlatib yugurish.	5-6 aylana	20-30	30	Tana vaznini oyoqlar o'rtasida teng taqsimlang va harakatlarni tez va aniq bajaring.

Badmintonchilarning o‘yin mahoratini oshirishda koordinatsion qobiliyatlar muhim o‘rin tutadi. Ushbu qobiliyatlar sportchilarning texnik harakatlarini tez, aniq va uyg‘un bajarishiga yordam beradi. Koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar o‘yin dinamikasini yaxshilash, harakatlarning aniqligini oshirish, sportchining muvozanatini mustahkamlash va maydondagi harakatlarini samarali boshqarishga xizmat qiladi. Ushbu mashqlar faqat jismoniy qobiliyatlarni emas, balki sportchilarning ruhiy tayyorgarligini, reaksiya tezligini va e‘tiborini oshirishga ham yordam beradi.

Yosh badmintonchilarning koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishda AKTning ahamiyati beqiyosdir. Ushbu texnologiyalar sport mashg‘ulotlarini ilmiy asosda tashkil qilish, individual yondashuvni joriy etish va sportchilarning qobiliyatlarini kompleks rivojlantirish imkoniyatini taqdim etadi. Shu sababli AKTni sport mashg‘ulotlariga keng joriy etish va innovatsion yondashuvlarni rivojlantirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Badminton sport turini ommalashtirish, yosh sportchilarning ushbu sport turi bo‘yicha bilimlarini oshirish, boshlang‘ich tayyorlov bosqichida koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish hamda ommalashtirish va amaliyotga joriy qilish maqsadida “Badminton academy” deb nomlangan platforma yaratildi. Ushbu platformaning maqsadi badminton sport turining paydo bo‘lishi, shakllanishi, tarixiy genezesi, dunyo va O‘zbekistonda ushbu sport turining rivojlanishi haqidagi ma‘lumotlarni berish bilan bir qatorda, foydalanuvchilar uchun yangiliklarni o‘z vaqtida, sifatli yetkazish hisoblanadi.

“Badminton academy” deb nomlanga ushbu platformada sportchilar uchun eng so‘nggi va eng yangi ma‘lumotlar bilan bir qatorda topshiriqlar, mashqlar jamlanmasi ham mavjud. “Badminton academy” – “Bosh sahifa”, “So‘rovnoma”, “O‘quv qo‘llanmalar”, “Maqolalar” va “Video darslar” kabi menyulardan iborat (2-rasmga qarang).



2-rasm. “Badminton academy” platformasining bosh sahifasi

“Bosh sahifa”da badminton sport turi bo‘yicha resurslar keltirilgan bo‘lib, ushbu sahifada o‘quv darsliklari, qo‘llanmalar, qonunlar to‘plami va boshqalar


mavjud. Mazkur platformada barcha resurslar mujassamlashtirilgan bo‘lib, ushbu sahifa orqali marcha ma’lumotlar bilan tanishishingiz mumkin (5-rasmga qarang).



3-rasm. “Badminton academy” platformasining resurslar sahifasi

“Badminton mashg‘ulotlari” sahifasida ushbu sport turi bo‘yicha mashg‘ulotlarni tashkil qilish, boshlang‘ich tayyorlov guruhida mashg‘ulotlarni taqsimlanishi va ularda koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish mexanizmi haqidagi ma’lumotlar keltirilgan.

“Badminton musoboqalaridan lavhalar” sahifasida asosan 2014-yil 7-noyabrdan boshlab bugungi kungacha o‘tkazilgan musoboqalardan lavhalar keltirilgan. Chunki, aynan shu yili O‘zbekiston Badminton Federatsiyasi Samarqand viloyati filiali tashkil etilgan (4-rasmga qarang).



4-rasm. “Badminton academy” platformasining sport turnirlar sahifasi

“Badminton sport turnirlari” sahifasida esa dunyo va jahon miqyosida o‘tkaziladigan turnirlar haqida ma’lumotlar keltirilgan. “Badminton o‘yin qoidalari” sahifasida ushbu sport turining o‘yin qoidalari, sport jihozlari va texnikasi haqida

ma'lumotlar keltirilgan. Ana shu o'yin qoidalarining mazmun-mohiyati atroflicha yoritilgan (5-rasmga qarang).



5-rasm. “Badminton academy” platformasining sport turnirlar sahifasi

“Badminton o'yin qoidalari” sahifasida ushbu sport turining o'yin qoidalari, sport jihozlari va texnikasi haqida ma'lumotlar keltirilgan. BWF (Jahon badminton federatsiyasi) har bir o'yinchi kortda amal qilishi kerak bo'lgan ba'zi qoidalarni o'rnatgan. Ana shu o'yin qoidalarining mazmun-mohiyati atroflicha yoritilgan. Yosh badmintonchilarning koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida “Badminton” nomli mobil ilova yartilgan bo'lib, ushbu ilovada boshlang'ich tayyorlov bosqichida koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantiruvchi mashqlar joy olgan. Foydalanuvchilarga qulaylik yaratish maqsadida, dastlab badminton sport turining tarixi, shakllanishi haqida qisqacha ma'lumot berilgan. So'ngra, tadqiqot davomida o'tkazilgan so'rovnomalarga asosan eng muhim koordinatsion qobiliyatlarga oid ma'lumotlar keltirilgan.

Ilovada “Mavzular”, “Videolar” va “Muallif” sahifalari mavjud. Har bir sahifada foydalanuvchilar uchun ma'lumotlar keltirilgan. Xususan, “Mavzular” sahifasida “Badmintonning sport turi sifatida genezesi va shakllanish tarixi” hamda “Badminton maydoni va jihozlari” haqida ma'lumotlar keltirilgan (6-rasmga qarang). “Badmintonning sport turi sifatida genezesi va shakllanishi tarixi” sahifasida ushbu sport turining paydo bo'lishidan boshlab bugungi kungacha shakllanish davrlari haqida atroflicha ma'lumot berilgan. Xususan, badmintonning eng muhim manbalari, ta'limotlari, oqimlari, ilk bor Gretsiya, Xitoy, Yaponiya, Hindiston va Afrika mamlakatlarida maydonga kelganliga bilan bir qatorda, shakllangan badminton maktablari haqida ham qisqacha izohlar keltirilgan.



Mobil ilova bosh sahifasi



Ro'yxatdan o'tish sahifasi



Ma'lumotlarni kiritish sahifasi




Mobil ilova bosh sahifasi



1-blok mashqlari umumiy sahifasi



2-blok mashqlari umumiy sahifasi




